



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4838,2 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,5 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 4617,7 mlrd. so'mni (104,0 foiz), o'rmon xo'jaligida 137,8 mlrd. so'mni (88,4 foiz), baliqchilik xo'jaligida 82,7 mlrd. so'mni (116,9 foiz) tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sishi asosan dehqonchilik, ovchilik va baliq ovlash hajmining sezilarli darajada o'sishi bilan izohlanadi. Xususan yuqori o'sish sur'atlari Taxiatosh (107,8 foiz), Beruniy (106,1 foiz), Qonliko'l (105,6 foiz) tumanlarida kuzatildi, Taxtako'pir (100,7 foiz), Chimboy (100,0 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlар kuzatildi.



4838,2

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot
(xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01



4617,7

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va
ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

02



137,8

O'rmon xo'jaligi

03




82,7

Baliqchilik xo'jaligi




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmida Amudaryo tumanining ulushi 17,4 foizni, Beruniy 11,8 foiz, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlari mos ravishda 11,3 foiz va 9,8 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush Nukus shahrida 0,5 foiz qayd etildi.

QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sishi 104,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 112,2 foizni, chorvachilik mahsulotlari 97,9 foizni tashkil qildi.


Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiyoj hajmining 71,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 27,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 1,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha hududlar kesimida taqsimlanishi, %



■ Fermer xo'jaliklari

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Dehqonchilik: 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2034,9 mldr.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 112,2 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 44,4 fozni tashkil qildi.

Hosilni yig'ib olish: Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida 182601 tonna ja'mi don mahsulotlar (112,3 foiz), 49725 tonna kartoshka (102,4 foiz), 185312 tonna sabzavot (106,6 foiz), 113140 tonna poliz (115,3 foiz), 36288 tonna meva (102,5 foiz) va 5121 tonna uzum (102,4 foiz) mahsulotlari yig'ib olindi.

2019 yilning yanvar- sentyabrda xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish surati, foizda	tonna	o'sish surati, foizda	tonna	o'sish surati, foizda
Jami don mahsulotlari	130320	124,4	49428	88,0	2853	167,2
Kartoshka	10423	112,4	39097	99,9	205	122,0
Sabzavot	46612	115,8	136105	102,7	2595	2,4 m
Poliz	53511	136,6	58876	101,3	753	91,7
Meva	9375	94,9	23345	102,8	3568	126,8
Uzum	522	145,0	4293	98,9	306	101,7

QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Chorvachilik



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2543,4 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 97,9 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik

mahsulotlarining ulushi 55,6 foizni tashkil etdi. Barcha toifadagi xo'jaliklarda chorvachilik mahsulotlarining ko'payishi go'sht (tirik vaznda) ishlab chiqarish hajmining 0,3 foizga, sut 0,2 foizga, tuxum 6,4 foizga o'sishi bilan izohlanadi.




2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 72,4 ming tonna go'sht, 221,2 ming tonna sut, 226,2 mln. dona tuxum, 80539 dona qorako'l teri mahsulotlari ishlab chiqarildi

Tuxum
226,2 mln dona,
o'sish suwrati
106,4 %



Sut 221,2
ming tn,
o'sish suwrati
100,2 %



Go'sht (tirik vaznda)
72,4 ming tn,
o'sish suwrati
100,3 %


Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2543,4 mlrd. so'm



Qorako'l teri
80539 dona, o'sish suwrati 101,0%



Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi, % da



Fermer xo'jaliklari



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 96,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 93,4 foizi, tuxumning 86,6 foizi, qorako'l terining 95,3 foizi va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari



Sut

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2019 yil yanvar- sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tn.	72,4	100,3
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	1,8	114,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	70,1	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	81,9
Sut, ming tn.	221,2	100,2
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	12,4	113,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	206,5	99,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3	89,0
Tuxum, mln. dona	226,2	106,4
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	15,2	121,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	196,0	101,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,0	197,1

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

Joriy yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1088,9 ming boshga, shu jumladan sigirlar 318,6 ming boshga, qo'y va echkilar 1112,9 ming boshga, otlar 24136, parrandalar 4317,8 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 5,1 ming boshga (0,5 foizga), shu jumladan sigirlar 5,6 ming boshga (1,8 foizga), qo'y va echkilar 31,3 ming boshga (2,9 foizga), parrandalar 0,2 mln boshga (5,9 foizga) ko'paydi.

2019 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shohli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,4 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 88,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 6,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 88,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	1088,9	100,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	48	103,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1032,1	100,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,8	97,6
ulardan sigirlar	318,6	101,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	16,1	107,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	299,7	101,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,8	102,0
Qo'y va echkilar	1112,9	102,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	114,3	117,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	982,6	102,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	16,0	57,2
Otlar	24,1	104,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	4,6	121,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	19,1	100,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,4	102,0
Parrandalar	4317,8	105,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	268,1	119,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	3801,6	103,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	248,1	154,5

Chorva mollari va parrandalar bosh soni

1088,9

**Yirik shoxli
qoramollarning umumiyl
bosh soni, ming boshda**



318,6

**shundan: sigirlarning
bosh soni, ming boshda**



1112,9

**Qo'y va echkilar umumiyl
bosh soni, ming boshda**



24136

**Otlarning umumiyl
bosh soni, boshda**



4317,8

**Parrandalarning umumiyl
bosh soni, ming boshda**

